



TYUTORLARNING YOSHLAR KAMOLOTIDA TUTGAN O'RNI

Olimova Firuza Aslonovna

Buxoro davlat universiteti axborot texnologiyalari fakulteti tyutori

Annotatsiya: Tyutor talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi inson bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroficha yechim topish bilan shug'ullanadi. Tyutorlarning asosiy maqsadi - ta'lismi va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda universitet va talabalar o'rtaqidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabalarning universitet hayoti va ta'lismi jarayoniga moslashishiga ko'maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish va talabalarda tanlagan kasbiga muhabbatni oshirishdir. Shu bilan birga ular yigit-qizlarning dars mashg'ulotlarini muntazam tahlil qilib boradi va sifatini oshiradi, ularning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy ahvoldidan doimiy xabardor bo'lib turadi.

Kalit so`zlar: Dars mashg'ulotlar, vatanga muhabbat, innovatsion ta'lismi texnologiyalari, akademik guruhlar.

Kirish: Har bir tyutor o'ziga biriktirilgan guruh talabalarini besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to'garaklarga jalb etib boradi hamda ularning ijodiy qobiliyati va iste'dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta'lismi olishi, ilm bilan shug'ullanishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashadi va bu boradagi yangiliklardan xabardor qilib boradi. Shuningdek, yigit-qizlarning o'quv intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, halollik, to'g'ri so'zlik kabi xislatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni yo'lga qo'yadi. Iqtidorli va iste'dodli talabalarini aniqlab, ularning turli tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga hamda talabalarning loyiha va startaplarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Bundan tashqari, talabalarning darslarni o'zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovatsion ta'lismi texnologiyalari va o'quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta'minlash va ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishi uchun zamin yaratadi [1].

Talaba yoshlar bilan bevosita ishlovchi tuzilmalar – guruh murabbiylari, yoshlar yetakchilarini, xotin-qizlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari faoliyatini muvofiqlashtirish zarur. To'g'ri bugungi kunda oliy ta'lismi muassasalarida "guruh murabbiylari" faoliyati to'xtatilib, tyutorlik instituti joriy qilinmoqda. Tyutor talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi inson bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroficha yechim topish bilan shug'ullanadi. Har bir tyutor o'ziga biriktilgan akademik guruhlarining darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish va joylashishi uchun e'lon berish va bu boradagi komissiya yig'ilishida talabaning ishtirokini ta'minlash, talabaga tavsifnomasi va akademik ta'til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag'batlantirilishi yoki jazolanishi, turli stipendiyalarga tavsija qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega. Tyutorning faoliyatini tubdan o'zgartirish va ularning psixologik bilimlarini oshirish lozim. Tyutorlarga alohida psixologik seminarlar hamda treninglar o'tkazish har bir talabaning ichki ruhiyati hamda xulq-atvorini haqida bilimga ega bo'lgan holatda ularga maslahat berish bilim va ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Bundan tashqari ayrim talaba qizlar hammaga birdekkirdini



aytavermaydi, ayniqsa erkak kishi bo'lsa. Buning uchun albatta fakultetlarda ham xotin-qizlar tashkilotlari faoliyatini jonlantirish, ularni moddiy rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish zarur [2]. Agar mavjud tuzilmalar faoliyati moddiy jihatdan muvofiqlashtirilsa, yoshlar yetakchisi bo'ladimi, xotin-qizlar bo'yicha mas'ul bo'ladimi o'z mas'uliyatini vijdodan bajarishga harakat qiladi. Yoshlar bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga qulq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishga intiladi. Oliy ta'lim muassasasi va oila munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, ayniqsa, ota-onalar mas'uliyatini oshirish zarur.

Ta'lim-tarbiyaning xalqning boy milliy-madaniy, tarixiy an'analarini, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali shakl, usul va vositalardan foydalanish orqali talaba-yoshlarda yot g'oyalar va mafkuraviy tazyiqlarga nisbatan g'oyaviy immunitetni shakllantirish mumkin. Bu borada faqat ma'naviyat va ma'rifat sohasi vakillarigina mas'ul deyish mantiqan xato bo'lardi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2021 yil 19 yanvar kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida kuyinchaklik bilan ta'kidlaganlaridek, "yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiysi, bu boradagi barcha ishlar birgina tashkilotning emas, balki, butun jamiyatning, ijodkor ziyoililar, pedagoglar, nuroniyalar, ota-onalarning zimmasidagi eng mas'uliyatli vazifadir" [3]. Darhaqiqat, ma'naviy tarbiya masalasi butun jamiyat oldida turgan dolzarb vazifadir. Bu vazifani bajarishda hech kim chetda turmasligi kerak. Mana yaqindan boshlab mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik instituti o'z faoliyatini boshladi. Bu yangi tizim. Yangi tizim albatta muammolardan, kamchiliklardan xoli bo'lmaydi. Har bir tyutor talabalarning sha'ni va qadr-qimmatini, obro'sini hurmat qilishi, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan muntazam xabardor bo'lishi, o'quv, ma'naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borishi, yigit-qizlarning darslarda ishtirokini nazorat qilishi, yoshlarning ota-onalari va o'zi bilan doimiy muloqot qilib borishi zarur. Aynan shu ishlarni yaxshi yo'lga qo'yish uchun samarali hamkorlik mexanizmlarini ishga solishimiz lozim. Talaba-yoshlarda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, ularni boy tarixiy madaniy merosimiz va an'analarimizga sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sodiqlik ruhida tarbiyalashda faqatgina tyutorlar yoki fan o'qituvchilarigina emas, balki, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan jamoat tashkilotlari vakillari, psixologlar, soha mutaxassislari birdek mas'uliyatlidirlar. Biz talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini kengaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun avvalo samarali hamkorlikni amalda ta'minlashga muvaffaq bo'lishimiz zarur. O'z o'rnida talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish ularning siyosiy, huquqiy, bilimlarini mustahkamlash, turli mafkuraviy tahdidlarga g'oyaviy immunitetni kuchaytirishda turli soha mutaxassislari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari, uchrashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar tashkil etish, ushbu tadbirlarning samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy – axloqiy tarbiya jarayoniga: insonparvarlik,adolatlilik,vatanparvarlik,e'tiqodlilik,vijdoniylik,sabrlik, andishalilik, do'stlik, hurmat, samimiylilik, milliy g'urur, nazokatlilik, xushmuomalalik, rostgo'ylik, tavoze', muammolarni mustaqil hal qila olish va boshqalarni kiritadi. Bu fazilatlarni shakllantirishda pand-nasihatlar, o'git, e'tiqodni shakllantirish, qiyoslash, suhbat, bahs, maslahat, ma'ruza, tajriba-tadqiqot, namuna ko'rsatish, tushuntirish, majbur qilish, rag'batlantirish, jazolash va boshqa uslublar turkumini tashkil qiladi [4]. Har bir tyutor o'ziga biriktilgan akademik guruhlarning darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, TTJga joylashishi uchun e'lon berish va bu boradagi komissiya yig'ilishida talabaning ishtirokini ta'minlash, talabaga tavsifnomasi va akademik ta'til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag'batlantirilishi yoki jazolanishi, turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnomasi berish huquqiga ega.

Xulosa. Shuningdek, har bir tyutor talabalarning sha'ni va qadr-qimmatini, obro'sini hurmat qilish, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan muntazam xabardor bo'lish, o'quv, ma'naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borish, yigit-qizlarning darslarda ishtirokini nazorat qilish, yoshlarning ota-onalari va o'zi bilan doimiy muloqot qilib borishga majburdir. Respublikamizda mustaqillik yillari amalga oshirilgan pedagogik tadqiqotlar tahlili mamlakatimizda yangi ilmiy - uslubiyatiga oid ishlarda



yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bugun ma’naviy-ma’rifiy ishlar pedagogikasining shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida yuksak ma’naviyatli, komil insonni tarbiyalash modeliga qator tarbiya yo‘nalishlari nazariy asoslanmoqda.

Foydalanimanadabiyotlar ro`yxati

1. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g’risida /O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2021 yil 26 mart, PQ-5040-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqi//Xalq so‘zi, 2019 yil, 21 sentyabrь.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Qarori//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
5. <http://uza.uz/oz/politics/shavkat-mirziyeev-yeshlar-tarbiyasi-eng-mu-immasalardan-16-06-2023>